

OILADA MULOQOT MADANIYATI VA UNING BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Danabayeva Kamila Tanatarovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti, Shimboy fakulteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
Assistent o'qituvchi

Annotatsiya. Globallashuv sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi bola shaxsini shakllantirishda muloqot madaniyatini o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqotning maqsadi oilaviy muloqot modellarining bola kamolotiga ta'sirini ilmiy asoslash va ota-ona hamkorligi tamoyillarini belgilashdan iborat. Ishda qiyosiy-pedagogik tahlil va psixologik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. E. G'oziyev, M. Zokirova va boshqa olimlarning nazariy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, muloqotning kommunikativ, perseptiv va interaktiv funksiyalari uyg'unligi bolada sog'lom "Men-konsepsiyasi" shakllanishida "psixologik filtr" vazifasini o'taydi. Tadqiqot xulosalari oilada ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish va barkamol avlod tarbiyasini samarali tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oilaviy muloqot, muloqot madaniyati, bola shaxsi, "Men-konsepsiyasi", psixologik filtr, ota-ona hamkorligi.

Аннотация. Трансформация семейных отношений в условиях глобализации обуславливает необходимость изучения культуры общения в формировании личности ребенка. Целью исследования является научное обоснование влияния моделей семейного общения на развитие ребенка и определение принципов родительского сотрудничества. В работе использованы методы сравнительно-педагогического анализа и психологического моделирования. Анализ теоретических взглядов Э. Газиева, М. Зокировой и других ученых показывает, что гармония коммуникативной, перцептивной и интерактивной функций общения служит «психологическим фильтром» в формировании здоровой «Я-концепции» у ребенка. Выводы исследования имеют практическое значение для оздоровления социально-психологической среды в семье и эффективной организации воспитания гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: семейное общение, культура общения, личность ребенка, Я-концепция, психологический фильтр, родительское сотрудничество.

Abstract. The transformation of family relationships in the context of globalization necessitates the study of communication culture in shaping a child's personality. The purpose of the study is to scientifically substantiate the impact of family communication models on child development and to define the principles of parental cooperation. The research employs methods of comparative-pedagogical analysis and psychological modeling. Analysis of the theoretical views of E. Goziyev, M. Zokirova, and other scholars demonstrates that the harmony of communicative, perceptive, and interactive functions of communication acts as a "psychological filter" in the formation of a healthy "Self-concept" in a child. The research findings hold practical significance for improving the socio-psychological environment within the family and effectively organizing the upbringing of a well-rounded generation.

Keywords: family communication, communication culture, child personality, Self-concept, psychological filter, parental cooperation.

Kirish. Bugungi jadal globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi bola shaxsini shakllantirishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqot madaniyatining yetishmasligi psixologik masofaning kengayishiga va bolada ijtimoiy moslashuv muammolarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi — oiladagi

muloqot madaniyatining bola kamolotiga ta'sirini ilmiy asoslash va sog'lom muhit yaratish tamoyillarini belgilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun muloqotning psixologik mohiyatini ochib berish, oilaviy muloqotning funksional modellarini aniqlash hamda ota-onalarning muloqot madaniyatini oshirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Oilaviy muloqot masalasi ko'plab psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, E. G'oziyev muloqotni inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarni bog'lovchi fundamental, sermazmun tizim sifatida talqin etadi [1, 160]. Tadqiqotchi M. Zokirova esa oilaviy muloqotni latent ziddiyatlarni bartaraf etuvchi "psixologik filtr" va tarbiyaviy ta'sir samaradorligini ta'minlovchi kommunikativ ko'priq sifatida baholaydi [3, 240]. Shuningdek, N. Goipova va M. Tursunaliyevlar muloqotning kommunikativ, perseptiv va interaktiv funksiyalari o'zaro hamkorlikning asosi bo'lib xizmat qilishini isbotlaganlar [4, 341].

Metod va materiallar. Tadqiqotda oilaviy munosabatlarni o'rganishning tizimli yondashuvi asosida qiyosiy-pedagogik tahlil metodidan foydalanildi. Bunda an'anaviy va zamonaviy muloqot modellarining samaradorligi o'zaro solishtirildi. Shuningdek, muloqotning kommunikativ, perseptiv va interaktiv funksiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda psixologik modellashtirish usuli qo'llanildi. Nazariy xulosalar shakllantirishda sohadagi fundamental ilmiy adabiyotlarning kontent-tahlili va pedagogik kuzatuv natijalarini umumlashtirish metodlariga tayanildi. Mazkur metodologik majmua oiladagi muloqot madaniyatining bola shaxsiga ta'sirini ob'ektiv baholash imkonini berdi.

Natija va tahlillar. Muloqot madaniyati va uning oiladagi o'zaro munosabatlarga ta'siri — bugungi kunda bu mavzu har bir zamonaviy oila uchun dolzarb va muhim hisoblanadi. Ota-ona va bolalar o'rtasidagi muloqot nafaqat oddiy o'zaro aloqani, balki o'zaro ta'sirni ham anglatadi. Shubhasiz, "yomon" ota-ona yoki "yomon" bola bo'lmaydi. Tushunmovchilik muammosi faqat yoshdagi farq tufayli emas, balki ba'zan bir-birini tinglay olmaslik va eshita bilmaslik sababli ham yuzaga keladi.

Ota-onalar va bolalar bir-birining qiziqishlari, sevimli mashg'ulotlari va shaxsiyati haqida qanchalik ko'p bilishadi? Afsuski, har doim ham yetarli emas. Kundalik tashvishlar, ishlar va majburiyatlar ko'pincha barcha bo'sh vaqtni egallab oladi. Juda ko'p hollarda muloqot ishtirokchilarining ikki tomoni (ota-ona va bolalar) bir-biriga sir bo'lib qoladi. Faqatgina ular o'zlaridagi insoniy fazilatlarni — mehr, iliqlik, iste'dod va ezgulikni ochib bera olganlaridagina bir-birlarini anglay boshlaydilar.

Qadimgi faylasuf Suqrot shunday degan: *"O'zaro tushunishsiz odamlar o'rtasidagi hech qanday muloqotning qadri yo'q."* E. G'oziyev aytganidek, muloqot tushunchasini keng ma'noda talqin etadi. Unga ko'ra, bu jarayon inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarni bog'lovchi sermazmun tizim bo'lib, kommunikativ aloqalarning barcha shakllarini o'z ichiga oladi [1,160]. Bu ongli va ongsiz ravishda amalga oshadigan og'zaki aloqa, axborotni uzatish va qabul qilish jarayonidir.

M. Zokirova tomonidan ilgari surilgan oilaviy muloqotning uch bosqichli funksional modeli bugungi kun pedagogik psixologiyasida fundamental ahamiyat kasb etadi [3, 240]. Ushbu yondashuv tahlili shuni ko'rsatadiki, muloqot shunchaki axborot almashinuvi emas, balki oiladagi latent ziddiyatlarni bartaraf etuvchi "psixologik filtr" va tarbiyaviy ta'sirning samaradorligini ta'minlovchi kommunikativ ko'prikdir. Muallif muloqotni shaxs kamolotining bosh kafolati sifatida talqin etar ekan, ota-ona va bola o'rtasidagi tartibga solingan aloqa bolada sog'lom "Men-konsepsiyasi"ning shakllanishiga bevosita xizmat qilishini ilmiy asoslab beradi. Zokirova konsepsiyasi oiladagi muloqot madaniyatini bolaning ijtimoiy-psixologik qiyofasini yaratuvchi yaxlit va murakkab pedagogik tizim sifatida baholash lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchi olimlar M. O. Q. Roziqova va G. Xasanboyevalarning ta'kidlashicha, muloqot orqali ota-onalar bolalarning xulq-atvori va faoliyatini to'g'ri yo'naltiradilar, ularning harakatlari hamda mehnatini baholash imkoniga ega bo'lalilar. Shuningdek, bu jarayon bolalarga hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini yo'qotmasliklariga ko'maklashadi. Mualliflar ushbu muloqot tizimini shakllantirishda ota-onadan yuksak sabr-toqat va fidoyilik talab etilishini, tarbiya jarayonida esa doimo odobli, muloyim hamda bosiq bo'lish zarurligini alohida qayd etadilar [2, 596].

Oiladagi muloqot jarayoni eng yaqin insonlar o'rtasidagi hamkorlikning o'ziga xos shakli bo'lib, u bir vaqtning o'zida kommunikativ, perseptiv va interaktiv funksiyalarni bajaradi hamda turli og'zaki va harakat vositalari orqali amalga oshadi [4, 341]. Goipova N. B. Q., Tursunaliyeva M. tomonidan keltirilgan ushbu yondashuv oilaviy muloqotni murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida talqin etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muloqotning kommunikativ jihati axborot almashinuvini ta'minlasa, perseptiv funksiyasi ota-ona va bolaning bir-birini emotsional tushunishi hamda idrok etishiga xizmat qiladi. Interaktiv funksiya esa ularning birgalikdagi faoliyatini tartibga soladi. Ushbu uchlikning uyg'unligi oilada nafaqat so'zlar, balki mimika va harakatlar orqali ham barqaror psixologik muhit yaratilishini kafolatlaydi. Binobarin, oiladagi muloqot shunchaki muloqot shakli emas, balki bolaning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy interaktiv maydondir.

Bunday muloqotning o'ziga xosligi, avvalo, uning yo'nalishida — o'zaro ta'sirga va bolaga qaratilganligida namoyon bo'ladi. Agar ota-onalar bolalarga yuqori darajadagi shaxslararo munosabat madaniyatini, adolatni nozik muomala bilan uyg'un holda, shijoatni kamtarlik bilan birga namoyish eta olsalar, unda bolalar ham beixtiyor ota-onasiga taqlid qilib, ma'naviy jihatdan barkamol va uyg'un shaxs sifatida shakllanadilar.

Muloqot inson shaxsini shakllantirishda eng muhim omillardan biri, tarbiya vositasi hisoblanadi. Chunki insonni tarbiyalash — bu faqat uning tasavvurlari va tushunchalariga ta'sir qilish, e'tiqodlarini shakllantirish emas, balki uning xulq-atvori hamda boshqa

odamlar bilan munosabatlarini amaliy jihatdan tartibga solishni ham ta'minlashdir. Bola bilan muloqot qilish kattalar bilan muloqot qilishdan ko'ra qiyinroq; buning uchun uning ziddiyatli ichki dunyosining tashqi ko'rinishlarini to'g'ri qabul qila bilish, ehtimoliy emotsional reaksiyalarini hisobga olish zarur. [2, 595-599]. Oiladagi muloqot jarayonida bola nafaqat yangi narsalarni o'zlashtiradi, balki ota-onasining unga bo'lgan munosabatini ham his qiladi. Bu ayniqsa o'smirlilik davridagi bolalar uchun muhimdir, chunki aynan shu davrda shaxsiy muloqot ko'nikmalari shakllanadi. [5, 26-29.]

M. Roziqova va G. Xalimjonovalar o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, agar ilgari bola yetakchiga ergashuvchi pozitsiyasiga rozi bo'lgan bo'lsa, endilikda ota-onalar hamkorlik vaziyatiga intilishlari lozim. Bu esa muloqot jarayonini tashkil etishda muayyan talablarni qo'yadi: ishonch, o'zaro tushunish, haqiqiy psixologik aloqa, ta'sir o'tkazishdan voz kechib, o'zaro hamkorlikka o'tish qobiliyati. [6, 24].

M. Roziqova va G. Xalimjonovalarning ushbu qarashlari oilaviy munosabatlardagi an'anaviy iyerarxik modeldan zamonaviy demokratik-hamkorlik modeliga o'tish zaruriyatini ilmiy asoslab beradi [6, 24]. Mualliflar muloqot jarayonida bolaning faqat bo'ysunuvchi pozitsiyada bo'lishi uning shaxsiy tashabbuskorligi va emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini bilvosita ta'kidlaydilar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning bir tomonlama ta'sir o'tkazishdan voz kechishi va teng huquqli hamkorlikka intilishi oilada haqiqiy psixologik aloqani o'rnatishning bosh mezonidir. Ushbu yondashuv muloqotni shunchaki buyruq berish vositasidan ishonch va o'zaro tushunishga asoslangan interaktiv maydonga aylantirishni nazarda tutadi. Binobarin, ota-ona va bola o'rtasidagi bunday sifatli o'zgarish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga va oilada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit qaror topishiga xizmat qiladi.

Bolalar bilan muloqotning muhim bosqichlaridan biri — bu mazmuniy va emotsional darajada amalga oshadigan qayta aloqa hisoblanadi. Qayta aloqa har qanday muloqot jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir.

Odamlar o'rtasida normal munosabatlarni o'rnatishda muloqot madaniyati katta ahamiyatga ega. Qadimiy muloqot qoidalariga ko'ra, muloqotdan zavq olishni istagan har bir inson quyidagilarga amal qilishi kerak:

- suhbatdoshingga ishonch, uning yaxshi inson ekaniga va sen bilan muloqot qilishga tayyorligiga ishonish;
- suhbatdoshingga hurmat bilan qarash, insonni eng oliy qadriyat deb tan olish va u bilan ehtiyotkorlik hamda odob bilan muloqot qilish.

Muloqotga oldindan salbiy fikrlar bilan kirishmaslik kerak. Bolaga hech qachon unda yaxshilikdan ko'ra yomonlik ko'proq deb o'ylagan holda murojaat qilmaslik lozim. Muloqot madaniyati ota-onalar o'z didi, odatlari va afzalliklarini bolalarga majburan singdirmasliklarini nazarda tutadi. Bu borada K.S. Stanislavskiyning quyidagi so'zlari juda aniq va o'rinli: "Muloqotda o'zingizni emas, balki muloqotni seving! Bolalar bilan

munosabatlarni shunday tashkil etishga intilingki, bola siz bilan muloqotdan doimo qoniqish his qilsin.

Oilada sogʻlom psixologik muhitni shakllantirish va bola shaxsining barkamol rivojlanishini taʼminlashda ota-onalarning muloqot madaniyati muhim oʻrin tutadi. Shu sababli ota-onalar farzandlari bilan munosabatda bir qator pedagogik va psixologik tamoyillarga amal qilishlari lozim. Avvalo, ota-onalar bolani qanday boʻlsa, shundayligicha qabul qilishlari zarur. Uning tashqi koʻrinishi, intellektual rivojlanish darajasi yoki qobiliyatlaridan qatʼi nazar, farzand oʻzini oilada qadrlangan va hurmat qilingan shaxs sifatida his qilishi muhimdir. Oilada bola uchun emotsional jihatdan qulay muhit yaratish ham katta ahamiyatga ega. Buning uchun ota-onalar farzandlariga doʻst va tayanch boʻlishlari, uning individual xususiyatlarini tushunishga intilishlari hamda kamchiliklariga sabr-toqat va bagʻrikenglik bilan yondashishlari kerak. Shu bilan birga, oʻz fikrlarini bolaga majburan singdirmaslik, muloyim va odobli munosabatda boʻlish, bolalarga ishonch bildirish hamda soʻz bilan amal oʻrtasida tafovut boʻlmasligiga eʼtibor qaratish zarur.

Tarbiyaviy jarayonda bolaga nisbatan tanbehni koʻpchilik oldida berishdan qochish maqsadga muvofiqdir. Agar muayyan masalani muhokama qilish zarur boʻlsa, bola bilan yakka holda suhbatlashish samaraliroq natija beradi. Shuningdek, ota-onalar oʻz xatolarini tan olishga jurʼat topishlari, zarur holatlarda farzandlaridan uzr soʻrashlari ham muhimdir. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsini tanqid qilish emas, balki uning muayyan xatti-harakatiga baho berish tamoyiliga amal qilish lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, oiladagi muloqot madaniyati bolaning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuvida muhim omil hisoblanadi. Ota-ona va farzand oʻrtasidagi samimiy, hurmatga asoslangan va ishonchli muloqot oilada sogʻlom psixologik muhitni shakllantiradi hamda bolaning maʼnaviy-axloqiy kamolotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ota-onalar bolalar bilan muloqot jarayonida sabr-toqatli, muloyim va adolatli boʻlishlari, ularning fikri va his-tuygʻularini inobatga olishlari zarur. Shundagina oilada oʻzaro tushunish va hamkorlik muhiti qaror topadi hamda barkamol, ijtimoiy faol va maʼnaviy yetuk shaxsni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Gʻoziev E. G. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1994.
2. Roziqova M. O. Q., Xasanboyeva G. Bolalar psixologiyasi va shaxs rivojlanish bosqichlari // Science and Education. – 2025. – Vol. 6. – № 12.
3. Zokirova M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Goipova N. B. Q., Tursunaliyeva M. U. B. Q. Bolalar nutqida sintaktik mexanizmlarning shakllanishi // Science and Education. – 2025. – Vol. 6. – № 5.
5. Rustamova G., Rakhmatullayeva Z. The interrelationship between appearance and self-attitude during adolescence // Claritas Conference Platform. – 2026. – № 1.
6. Roziqova M. O. Q., Xalimjonova G. The impact of a psychologically healthy lifestyle on an individual's emotional stability // Claritas Conference Platform. – 2026. – № 1.